



**ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK
MAHORAT MILLIY INSTITUTI**



MAKTABDA NOMODDIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Tinglovchi: Yo'ldoshev Ilhom Ashurovich.


Toshkent-2025



Har bir davlat xizmatchisi har kuni o'zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyiqligini isbotlashi shart.

Shavkat Mirziyoev

MAVZUNING DOLZARBLIGI



Bugungi kunda ta'lim tizimida moddiy resurslar bilan bir qatorda **nomoddiy resurslar** – bilim, malaka, ijtimoiy-madaniy muhit, rahbarlik sifati, ustoz-shogird an'analari, ijtimoiy kapital kabi omillar ham katta ahamiyat kasb etishi

Maktabda mavjud bo'lgan nomoddiy resurslardan oqilona foydalanish - ta'lim sifatini oshirish, pedagogik salohiyatni rivojlantirish, o'quvchilarda innovatsion tafakkurni shakllantirishda muhim vosita hisoblanishi.

Ta'lim sifati faqat moddiy resurslarga bog'liq emas, balki o'qituvchilar va o'quvchilarning intellektual salohiyati, motivatsiyasi, innovatsion yondashuvlar kabi nomoddiy resurslarni to'g'ri boshqarishga ham bog'liqligi.

Me'yoriy -huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.05.2024-yildagi 263-sonli "Sifatli ta'limni ta'minlashda ijobiy natijalar ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbariyati hamda o'qituvchilariga ustama berish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7 -avgustdagi 246-son buyrug'i, Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida.



Mavzuga oid adabiyotlar tahlili


Ta'lim tizimida innovatsion
yondashuvlar:
Ilg'or xorijiy tajribalar va
rivojlanish istiqbollar
Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari.



O'quv qo'llanma
"Umumiy o'rta ta'lim
muassasalarida samarali
boshqarishni tashkil etish" Muallif:
Nozimov I, Xudoyberganova S.
Chop etilgan yili: 2024

Kitob nomi:
"Beshinchi intizom: Ta'lim
tashkilotlarini yaratish san'ati va
amaliyoti" (The Fifth Discipline:
The Art & Practice of The
Learning Organization)
Muallif: Peter Senge
Chop etilgan yili: 1990

Kitob nomi:
"Nomoddiy aktivlar: Ularning
korporativ qiymat va iqtisodiy
o'sishga qo'shgan hissasini
o'lchash va oshirish" (Intangible
Assets: Measuring and Enhancing
Their Contribution to Corporate
Value and Economic Growth)
Muallif: John Hand, Baruch Lev
Chop etilgan yili: 2003



Maqsad:

Maktab ta'limida nomoddiy resurslardan samarali foydalanish orqali o'quvchilar va o'qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, yanada samarali foydalanish usullarini aniqlash va amaliyotda qo'llash.



Vazifalar:

1. Nomoddiy resurslarni aniqlash va ularni tahlil qilish va loyihalar ishlab chiqish.
2. O'quvchilarning kreativ va innovatsion fikrlashini rivojlantirish.
3. Nomoddiy resurslardan foydalanib ta'lim sifatini oshirish.
4. Mustaqil izlanishlarni va loyihalarni rag'batlantirish.



QIYOSIY TAHLIL			
T/R	Amaldagi holat (O‘zbekistonda)	Amaldagi holat (Xorijiy davlatlarda)	Taklif
1	Raqamli resurslardan foydalanish, interaktiv o‘quv materiallarini taqdim etish imkoniyatlari yaratilgan.	Janubiy Koreyada pedagoglarni axborot texnologiyalari sohasi bo‘yicha maxsus imtihon orqali saralashadi.	Axborot texnologiyalaridan foydalanishda maxsus amaliy kurslar tashkil qilish.
2	O‘quvchilarning ilmiy-ijodiy loyihalarda ishtirok etishi qo‘llab-quvvatlanmoqda.	Yaponiya an’anaviy ta’lim yondashuvlaridan chiqib, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda.	Darslarda natija uchun ishlashning amaliy qismiga ko‘proq ahamiyat qaratish.
3	Ana’anaviy va formativ baholash usulidan foydalaniladi	Xitoyda sun’iy intellekt asosida baholash tizimidan foydalanilmoqda.	Sun’iy intellekt asosida baholash tizimlarini amaliyotda qo‘llash.

Xulosa

Nomoddiy resurslardan samarali foydalanish ta'lim jarayonini zamonaviy, innovatsion va samarador bo'lishiga xizmat qiladi. O'qituvchilar va o'quvchilarning intellektual salohiyati, kreativ fikrlashi va ilmiy-ijodiy ishlari maktab ta'limining sifatini oshirishga yordam beradi. Buning uchun o'qituvchilar malakasini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va kreativ ta'lim muhitini yaratish muhimdir.



Taklif

Mavjud nomoddiy resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha strategik loyihalar ishlab chiqish.

Yuqori intellektual salohiyatli o'qituvchi va o'quvchilarga shart sharoit yaratish va ulardan ishlarini ommalashtirish.

O'qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirish.

Nomoddiy resurslardan samarali foydalanib maktabga budjetdan tashqari mablag' topish va moddiy texnik bazani rivojlantirish.





CHORA-TADBIRLAR JADVALI

No	Muammo	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ullar	Muddati	Kutilayotgan natija
1	Maktabda nomoddiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha pedagoglarning yetarli ko'nikmalarga ega emasligi.	Maktab rahbarlari boshchiligida pedagoglarning nomoddiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha maxsus trening va seminarlarni tashkil etish lozim.	Direktor, maktab kadrlar bo'yicha menejer, direktor o'rinbosari	Nazorat doimiy 2025-yil noyabrdan boshlab	Pedagoglarning ko'nikmalari oshishi bilan nomoddiy resurslarni samarali boshqarish yo'lga qo'yiladi, maktabda resurslardan foydalanish yaxshilanadi va ta'lim sifati oshadi.
2	Ota-onalarning ta'lim tashkilotidagi faolligini oshirish	1) Har chorakda ota-onalar bilan uchrashuvlarni kuchaytirish. 2) Maktab hayotiga volontyorlik asosida jalb etishni oshirish. 3) Mahalla bilan qo'shma loyihalar ishlab chiqishni mustahkamlash.	Direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari	Nazorat doimiy 2025-yil noyabrdan boshlab	Ota-onalarning maktab hayotidagi ishtirokini oshadi, "o'quvchi-maktab-ota-ona" uchburchagini kuchaytirish.
3	O'qituvchilarning zamonaviy intellektual salohiyatlarini boyitish	1) O'qituvchilar uchun ichki treninglarni kuchaytirib tashkil etish. 2) Zamonaviy metodikalarni o'rganish uchun tajriba almashishni faollashtirish. 3) Maktab kutubxonasini yangi adabiyotlar bilan boyitishni kuchaytirish.	Direktor, metod birlashma rahbarlari	2025-yil oktabr-dekabr	O'qituvchilarning pedagogik salohiyati oshiriladi hamda dars samaradorligi kuchaytirishga erishiladi
4	Maktab inson resurslarining raqamli vositalardan foydalanishida faolligini oshirish	1) Sinflarda internet va texnika vositalarini ishlatishni kuchaytirish. 2) Har oy onlayn platformalardan foydalanish bo'yicha seminarlarni kengaytirish. 3) Elektron testlar va raqamli dars ishlanmalarini oshirish.	Maktab direktori, sinf rahbarlari	2025-yil oktabr-dekabr	Raqamli vositalardan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'ladi hamda o'quv jarayonining samaradorligi oshadi.
5	O'quvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari shakllantirish	1) Uy vazifalarini ijodiy va izlanishga yo'naltirishni kuchaytirish. 2) Kutubxona va onlayn platformalardan foydalanishni oshirish. 3) Mustaqil loyiha ishlari uchun rag'batlantirish tizimini kuchaytirish.	Sinf rahbarlar, fan o'qituvchilari	2025-yil noyabr-dekabr	O'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini oshiriladi, izlanish va mas'uliyat hissini kuchayadi

E'TIBORINGIZ UCHUN

RAHMAT!